



REFLECTION OF THE WOMAN'S THEME IN NEW POETRY (IN THE EXAMPLE OF THE POEMS OF ELBEK AND BOTU)

Yusupova Xumora Sobirjon qizi

2nd year master's student at Tashkent State University of Uzbek

Language and Literature named after Alisher Navoi

tojyevaxumora@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15680340>

ARTICLE INFO

Received: 10th June 2025

Accepted: 16th June 2025

Online: 17th June 2025

KEYWORDS

New generation, awakening, Elbek, Botu, rebellion, daughter of freedom, to Uzbek girls, symbol.

ABSTRACT

This article explores the artistic interpretation of the theme of women in Jadid literature of the early 20th century. Based on the poetry of Elbek and Botu, the study analyzes how Jadid poets portrayed women as a vital social force on the path of enlightenment and progress.

ОТРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ ТЕМЫ В НОВОЙ ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ЭЛЬБЕКА И БОТУ)

Юсупова Хумора Собиржон қизи

Студент 2 курса магистратуры Ташкентского государственного университета
узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15680340>

ARTICLE INFO

Received: 10th June 2025

Accepted: 16th June 2025

Online: 17th June 2025

KEYWORDS

Новое поколение, пробуждение, Элбек, Боту, восстание, дочь свободы, узбекской девушке, образ.

ABSTRACT

В данной статье исследуется художественное отражение женской темы в джадидской литературе начала XX века. На основе стихов Элбека и Боту анализируются идеи джадидских поэтов, изображающих женщину как важную социальную силу на пути к просвещению и прогрессу.

JADID SHE'RIYATIDA AYOL MAVZUSINING AKS ETISHI (ELBEK VA BOTU SHE'RLARI MISOLIDA)

Yusupova Xumora Sobirjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs
magistranti

tojyevaxumora@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15680340>

ARTICLE INFO

Received: 10th June 2025

Accepted: 16th June 2025

Online: 17th June 2025

ABSTRACT

Mazkur maqolada XX asr boshidagi jadid adabiyotida ayol mavzusining badiiy talqini o'rganiladi. Elbek va Botu she'rlari



KEYWORDS

Yangi avlod, uygʻonish, Elbek, Botu, qoʻzgʻol, erk qizi, oʻzbek qiziga, timsol.

asosida jadid shoirlarining ayolga munosabati, uni maʼrifat va taraqqiyot yoʻlidagi muhim ijtimoiy kuch sifatida tasvirlagan gʻoyalari tahlil qilinadi.

Kirish (Introduction)

Oʻzbek jadid adabiyoti XX asr boshida milliy uygʻonish va ijtimoiy taraqqiyot uchun yangi yoʻl ochdi. Bu davrda shoirlar millatning kelajagi uchun ayol mavzusiga alohida eʼtibor qaratdi. Choʻlpon, Qodiriy, Behbudiy, Hamza kabi jadid adabiyoti yetakchilari ayol obrazini jamiyatdagi muhim ijtimoiy kuch sifatida koʻrsatish ustida ishladi. Ularning ijodiy maktabi davomida yosh shoirlar — Elbek va Botu — ayol haqidagi fikrlarni yanada chuqurlashtirib, ayollarni uygʻonishga, jamiyatda faollikka, yangi bilimlarni qabul qilishga undovchi ijod namunalari yaratdilar. Mazkur maqola ana shu uygʻonish davrining ikki yorqin vakili — Elbek va Botu qalamiga mansub sheʼrlar orqali ayol mavzusining qanday poetik shakl kasb etganini ochib berishga qaratilgan.

Uslub (Methods)

Ayol mavzusining jadid sheʼriyatida qanday talqin qilinganini anglash uchun Elbek va Botu kabi shoirlarning ijodiy qarashlari, poetik daʼvatlari va badiiy yondashuvlari alohida eʼtibor talab qiladi. Ushbu tadqiqotda aynan ana shu ikki shoir asarlari asosida ayol obrazining shakllanishi, uning uygʻonish va taraqqiyot yoʻlidagi ijtimoiy ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida adabiy-tarixiy kontekst, tematik yondashuv hamda poetik tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy diqqat shoirlarning ayolga munosabati, uni uygʻonish va ijtimoiy taraqqiyot timsoli sifatida tasvirlash uslublariga qaratildi. Elbekning “Qoʻzgʻol” va Botuning “Oʻzbek qiziga”, “Erk qizi” kabi sheʼrlari asosida ayol obrazining shakllanishi, ideallashtirilishi va maʼnaviy-maʼrifiy yuklamasi oʻrganildi. Shuningdek, oʻsha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, jadidlar harakati, zamonaviy adabiyotshunoslik qarashlari bilan solishtirma yondashuv amalga oshirildi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalariga koʻra, Elbek va Botu kabi jadid shoirlari ayol obraziga nafaqat lirik, balki ijtimoiy-maʼrifiy va mafkuraviy timsol sifatida yondashgan. Ularning sheʼrlarida ayol — ilmga chanqoq, uygʻonishga intilgan, jamiyatdagi oʻz oʻrnini izlayotgan kuchli shaxs sifatida gavdalaniriladi. Jadid adabiyoti doirasida bunday ayol timsoli oʻzbek ayollarining tafakkuriy uygʻonishini ifodalabgina qolmay, balki millatning kelajagiga bevosita taʼsir koʻrsatuvchi omil sifatida koʻriladi. Elbek va Botu ijodida ayolning jasorati, or-nomusi, erkka intilishi orqali jadidlarning yangicha dunyoqarashi va modern milliy tafakkuri namoyon boʻladi. Bu esa jadid adabiyotida ayol mavzusining gʻoyaviy-badiiy salmogʻini yaqqol koʻrsatadi.

Muhokama (Discussion)

Elbek taxallusi ostida ijod qilgan Mashriq Yunusov yosh jadidchilardan sanaladi. U Elbek 1898-yili Toshkent viloyatining sobiq Iskandar boʻlisining Xumson qishlogʻida kambagʻal dehqon oilasida tugʻiladi, bolalik ham yoshlik yillari juda ogʻir oʻtadi. Elbek sheʼriyat, hikoyachilik sohasidagina emas, oʻzbek tili va folklori sohasida ham qalam tebratgan maʼrifat sohibidir. Uning ayollar mavzusiga oid sheʼrlari ham talaygina Ulardan biri “Qoʻzgʻol”- undov sheʼridir. Bu sadosi yillar sukutidan otilgan dard nidosi. Elbek bu asarni oʻtmishdagi ayollar



hayoti, ularning bo'ysunishga mahkum qilingan kunlari, hamda yangi davrda ochilayotgan imkoniyatlar bilan kesishmasida yozadi. She'r jadidlar chaqirig'i bilan hamohang: so'zsiz ayol emas, gapiradigan, fikrlaydigan, tanlov qiladigan ayol kerak!

(Xotin-qizlar uchun)

Qo'zg'ol, ortiq yetar, ey, qayg'uli ohlar chekkan,
Intil, olg'a bos odum, ko'zlari qon yosh to'kkan!
Seni tutqunluq aro saqladilar, yo'l qo'ymay,
Sening erkingni olib toptadilar, so'z bermay.
Jonvorlar kabi tor yerga qamab saqladilar,
Ko'rgali qo'ymadilar senga u porloq kunni
Qo'yдилar senga bori mangu qorong'u tunni
Sen-da jim turding ularning shu tegishsiz ishiga,
Aytmading dardingni shu choqqacha hech bir kishiga.
Mana, erking quyoshi senga qarab yuz ochdi,
Qora uylar yiqilib, ul qora devlar qochdi.
Qo'rqma, hurkma, u zamon kechdi bukun ustingdan,
Usting archildi sening ul qora qo'rqinch tundan.
Sen uchun bu zamon berma paytni qo'ldan,
Chiq qorong'u ichidan, ket, mana, porloq yo'ldan.
She'r o'zining ruhiy bosqichlari orqali o'sib boradi [1: 32].

1. Yashiringan nolalar – sukut bosqichi:

“Qayg'uli ohlar chekkan”, “ko'zlari qon yosh to'kkan” — bu satrlar ayol qalbining uzoq yillar yig'ilib kelgan alamini ochib tashlaydi. Lekin bu nola sukutda bo'lgan — “hech bir kishiga” aytilmagan dard.

2. Norozilikning uyg'onishi – anglash bosqichi:

“Sen-da jim turding... aytmading dardingni” – bu ayolga yo'naltirilgan falsafiy kinoya. U zulmda bo'lgan, ammo jim bo'lgan. She'r bu yerda ayolga javobgarlikni ham yuklaydi: “Sening sukuting — ularning quroli bo'ldi”.

3. Erkinlik yo'lida harakat – o'zgarish bosqichi:

“Erking quyoshi senga qarab yuz ochdi”, “qora uylar yiqilib...” – endi vaqt o'zgargan. Biroq bu erkinlik — faqat taklif. Uni olish uchun harakat zarur. She'rda tashqi ozodlik tasvirlanmaydi, balki: “Sen o'zing uyg'onmaguncha, erkinlikning ham qiymati yo'q” deyiladi.

4. Qo'rquvdan chiqish – ruhiy ozodlik bosqichi:

“Qo'rqma, hurkma” undovlari orqali Elbek ayolning zaifligiga emas, balki uning bostirilganiga, qo'rqitilganiga sha'ma qiladi. She'rda: “Sen uchun bu zamon... Chiq qorong'u ichidan” deyilganida, qorong'ilik tashqi emas, ruhiy qorong'ilik sifatida talqin qilinadi. Elbek ayolni bu qorong'ilikdan olib chiqmoqchi emas — u ayolning o'zini uning ichidan o'tib o'z yo'lini topishga undaydi. Ya'ni jamiyat bilan kurashmoq uchun oldin o'z ichidagi jangda g'alaba qozonib, haqiqiy "men"ini ozodlikka chiqarilishi lozim.

Elbekning “Erk qizig'a” she'ri – o'z davrining ayollariga yozilgan uyg'otuvchi asar bo'lib, uni “Qo'zg'ol” she'rining mantiqiy davomi desak ham bo'ladi. U tutqunlikda og'riq va sukut bilan yashayotgan ayollarga: “agar sen erkin bo'lsang, shunday go'zal hayot senga ham tegishli” degan g'oyani kuchli poetik til bilan yetkazadi. Bu she'r orzu emas – ayollarning asl



haqiqatini anglash, ularni uyg'otish va ilhomlantirish yo'lida yozilgan jasoratli asardir. Quyida she'r matni bilan tanishamiz:

Erk qizig'a
Tabiatning keng, erkinli qirida
Erkin-erkin o'ynag'uchi erk qizi!
Chechak isi qatnash tongning yelidan
Erkalanib tin olg'uchi erk qizi!
Ayt-chi, senga baxtli kimsa bormikan,
Dunyodag'i jonlilarning ichinda?
Ko'rgil, ana, tabiatni qandayin
Bezaklanib, senga kulub qaraydir!
Go'yokim u sening yumshoq ko'nglingni
Bor kuchi-la og'ritmasg'a tilaydir.
Shuning uchun uning yumshoq yellari,
Seni har choq qitig'lar, o'ynaylar.
Silliq qo'llari silab, silliq qo'llari,
O'ynatmayin kuldirmayin qo'ymaylar.
Buloqlari totli, tiniq suvlarini
Ichirmak-chun quvonch kuylar kuylashib,
Chaqirarlar yonlarig'a yumshoqqina til bilan,
Qizg'onishib bir-birlaridan talashib.
Sening nozik oyoqlaringni yuvgach,
Tosh, tikanning qiynog'idan saqlashg'a,
Chechak bilan bezangan shul o'tlardan,
Yer ustiga yashil gilam to'shagan.
Mana shular yolg'iz sendan boshqag'a
Bag'ishlanib ishlanmagan, bo'lmag'on.
«Baxtliman», deb lof urguchi har kimsa
Sanday baxt yuzini sira ko'rmagan!
Shuning uchun o'yna, quvna, erk qizi,
Yolg'iz sensan bu dunyoning baxtlig'i. [2: 98]

She'r erkinlik tasviri bilan boshlanadi. "Keng, erkinli qir" – cheksizlik, to'siqsizlik, ochiq hayot ramzi. Qizning harakati esa aynan shu tabiiy erkinlik bilan uyg'un: "erkin-erkin o'ynag'uchi". Bu obraz orqali muallif insonning tabiiy holati – erkin yashashga bo'lgan haqqini tasdiqlaydi. Ayol erkka erishgach qanday yashashi, qanday mavjudlikda bo'lishi mumkinligi haqida idealistik bir tasavvurni beradi. Lekin bu ideallashtirish emas, balki real hayotga tatbiq etilishi mumkin bo'lgan imkoniyatni badiiy asoslashdir. Ya'ni, she'rda ayolning ozodligi tasvir emas, maqsad sifatida talqin etiladi. Bu jihatdan u ijtimoiy-axloqiy, estetik va ma'naviy ozodlik g'oyasining mujassam badiiy namunasi sanaladi. She'rning markazida inson sifatida qadrlangan, o'z mavjudligini to'liq anglay olgan, ichki erki uyg'ongan ayol turadi. Bu obraz orqali shoir ayol tabiatan ojiza emasligini, balki unga yuklatilgan ijtimoiy chegaralar uni ojiz ko'rsatganini fosh qiladi. Ayol erkin bo'lsa, u faqat o'zini emas, balki atrof-muhitni, jamiyatni, madaniyatni ham uyg'otadi, go'zallashtiradi. Shu sababli, she'rda ayol obrazining atrofini o'rab



olgan poetik muhit – tabiat, suv, shamol, giyoh, gullar – barchasi hayotbaxsh ruhda tasvirlanadi. Bu esa badiiy ifodada inson va tabiat uyg'unligini ayol erkinligi bilan bog'laydi.

“Yer ustiga yashil gilam to'shagan.

Mana shular yolg'iz sendan boshqaga

Bag'ishlanib ishlanmagan, bo'lmagan.”

She'rda ayol uchun yaratilgan, boshqa hech kimga nasib bo'lmagan betakror olam tasvirlanadi. “Yashil gilam” – hayot yo'lida og'riq va mashaqqatlardan asraydigan ilohiy g'amxo'rlik. Bu yerda ayolga nisbatan samimiy, ehtiyotkor munosabat targ'ib qilinadi.

She'r yakunida muallif bevosita ayollarga murojaat qiladi. Bu so'zlar alohida bir obrazga emas, balki barcha ayollarga qaratilgan ilhomli da'vatdir: agar sen erkin bo'lsang, haqiqiy baxt senga tegishli. Asarda yashirin, ammo kuchli turtki mavjud — “Sen ham erk qizi bo'lishing mumkin”. Bu hayot tarzi — og'riqli tarixdan chiqishning orzusi emas, balki haqiqatga aylanishi mumkin bo'lgan ertangi kundir.

Jadidlar orasida Botu deb tanilgan yana bir ijodkor– Mahmud Hodiyev ham yosh istiqlochlilardan edi. U yangi tuzumga chin dildan ishongan, xalqqa haqiqiy tenglik, ozodlik, baxtsaodat beradi, deb umid qilgan. Shu ma'noda yangilikni, yoshlikni, Xotin-qizlar ozodligini kuyladi

Uning “O'zbek qizig'a” she'ri ham qizlarning ayanchli qismatidan xabar beradi. She'rda asosiy g'oya – ayol erkinligining vaqtincha bo'lishi, ayol taqdirining og'irligi, va ertangi kun uchun xavotir ifodalangan. Shoir jamiyatdagi ayol erkinligining chegaralanganligini tanqid qiladi, ayniqsa qiz bolalar taqdirini erkinlikdan mahrum bo'lish, majburiy nikoh, va ijtimoiy zulm kabi hodisalar bilan bog'lab ko'rsatadi. She'rni baytma-bayt tahlil qilamiz:

O'ynoq qizcha erkin-erkin o'ynab ol,

Erta-indin erking qo'ldan ketadir.

Bu baytda Botu bevosita murojaat uslubida qiz bolaga qarata so'z yuritadi. “O'ynoq qizcha” – beg'amlik, erkinlik, hayotga sho'x qarash timsoli. Ammo bu erkinlik “erta-indin” degan vaqt birligi bilan ogohlikka buriladi. Shoirona tarzda ijtimoiy haqiqat – ayol erkiga chegaralar qo'yilishi — jamiyatda mavjud bo'lgan patriarhal tizim tanqid qilinmoqda.

2-bayt:

Erkalanib bir-ikki kun quvnab qol,

Erka ko'ngling hasratlarga botadir.

Bunda avvalgi fikr kuchaytiriladi: vaqtincha beg'amlik, orqasidan esa dard va hasrat keladi. “Erka ko'ngil” – orzular, hayotga ishonch, yengil kayfiyat ifodasidir. Shoir bu yerda ayol hayotidagi keskin burilish – orzular va erkinliklar o'rnini qo'rquv, majburlik, ijtimoiy tazyiqlar egallashini ko'rsatmoqda.

3-bayt:

Nurlar sochib o'ynab turg'on ko'zlaring,

Erta-indin g'am yoshi-la to'ladir.

Ko'z – poetik obraz sifatida ichki holatni aks ettiradi. “Nurlar sochib” – baxtiyorlik, quvonch, hayotga zavq, ammo “g'am yoshi” – bu go'zallikni, quvonchni bosib ketuvchi haqiqiy turmush taqdiridir. Muallif bu yerda ayolning ichki iztirobini ko'z timsolida tasvirlaydi.

4- bayt:

Sevinch porlab kulib turg'on yuzlaring



Dard ostida sap-sarg'ayib so'ladir.

Yuz – tashqi ko'rinish, jamiyat ko'radigan niqob. “Sevinch porlab” – hayotga ishonch, ijobiy quvvat, “sap-sarg'ayib so'lish” – umidsizlik, ezilish. Bu satrda fizik ifoda orqali ruhiy qulash tasvirlanadi. Ayolning tabiiy go'zalligi majburiy ijtimoiy vazifalar ostida so'nadi.

5-bayt:

Ko'ksingdagi erk chechaging boy berib,
Erta-indin motam gulin taqarsan.

Bu satrlarni poetik jihatdan she'rning eng chuqur qatlami desak, mubolag'a bo'lmaydi. “Ko'ksingdagi erk” – yurakdagi orzu, ichki irodani bildiradi. “Chechak” – o'zligini bezatib turgan timsol, ayollikka xos go'zallik. Ammo bu chechak “boy beriladi” – ya'ni, ayol o'zligidan voz kechishga majbur bo'ladi. “Motam guli” – faqat tashqi emas, balki ichki o'limni, orzularning so'nishini bildiradi.

6-bayt:

Ana, so'ngra qop-qorong'i zindonda
Yig'lab-siqtab o'lumungni kutarsan.

Bu satrda zindon – metafora sifatida qo'llaniladi. Bu nafaqat jismoniy bandlik balki, ma'naviy tutqunlikdir. “Yig'lab-siqtab o'limingni kutarsan” – bu passiv fojia emas, balki ijtimoiy tizim olib kelgan ayol fojiasi. Bu orqali ayol hayotining boshqarilishi qanday oqibatlarga olib kelishini lirik kuch bilan ochib berilgan.

7-bayt:

Boyaqish qiz, erkalanib o'ynab ol,
Erkinlikda bir-ikki kun quvnab qol [1:9]

Yakunlovchi baytda she'r chegaralangan xotima bilan tugaydi. Shoir a yechim taklif qilmaydi. Bu — ayanchli realistik yakun. “Boyaqish qiz” – rahm emas, balki achchiq haqiqatni bildirish, uyg'otishdir. Shoir bu orqali o'quvchini o'ylashga, holatni anglashga majbur qiladi.

Xulosa (Conclusion)

Fikr so'ngida shuni aytish joizki, jadid she'riyatida ayol mavzusi faqat shaxsiy hissiyotlar emas, balki milliy ma'rifat va yangilanish timsolidir. Elbek va Botu ijodi orqali ayolning jamiyatdagi o'rni va uning mustaqil fikrga ega shaxs sifatida shakllanishi ko'zga tashlanadi. Bu yondashuv o'zbek adabiyotida yangi davrni boshlab berdi va ayol haqidagi eski stereotiplarni yengishga yordam berdi.

References:

1. Jadid kulliyoti. Go'zal yozg'ichlar. Zabarjad media.T.,2023
2. Elbek. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Rajabov A. Jadidlar poetikasi va uning zamonaviy talqini. – Toshkent: Fan,2015.
4. Qosimova M. XX asr boshlarida o'zbek she'riyatida ayol obrazining shakllanishi. – Samarqand: SamDU, 2018
5. Elbek.Jadid.uz <https://jadid.uz/jadids/elbek/>
6. Ziyo istagan qalblar uchun. Botu <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/botu-1904-1938>.